

FUQAROLARNING JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDA ISHTIROKINING TARIXIY-NAZARIY AHAMIYATI

Sobirova Nafosat Gulmirzo qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisi, leytenant

Xalilov Jonibek Uktam o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti, safdor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14550682>

Dunyoning barcha davlatlarida aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash dolzarb vazifa bo'lib, bu borada ichki ishlar (politsiya) organlarining kuch va vositalarini bevosita aholi punktlariga yo'naltirish va boshqarish, keng jamoatchilik bilan hamkorligini samarali tashkil etish ushbu sohadagi dolzarb masalalardan biridir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizlikni, huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni uzluksiz amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan, xalqimizning ma'naviyati va milliy qadriyatlariga asoslangan yangi tizim – ichki ishlar organlarining tayanch punktlariga asos solindi. Tayanch punktlari faoliyatining huquqiy, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik va kadrlarga oid asoslari, ularni boshqarishning o'ziga xos tizimi shakllandi. Buning natijasida tayanch punktlari aholi turar joylarida tinchlik va osoyishtalikni, huquq-tartibot va jamoat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy maskanga aylanib, ularda ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining o'zaro, davlat organlari va muassasalari, jamoatchilik tuzilmalari bilan uzviy hamkorligi yo'lga qo'yilmoqda. Profilaktika inspektorlarini uy-joy, xizmat xonalari va avtomashinalar bilan ta'minlash masalalari hal qilib berilmoqda. Jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish borasidagi sa'y-harakatlar, avvalo, keng jamoatchilikning ishtiroki bilan 2018-yilda umumiy jinoyatchilikning 36 foizga kamayishiga erishildi. 3 ming 205 ta yoki 35 foizdan ziyod, mahallada esa bironta ham jinoyat sodir etilmadi^[1].

Har qanday davlatda jamoat tartibi va xavfsizligining holati ko'p jihatdan fuqarolarning jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi qanchalik faol bo'lishiga bog'liq. Bunda fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga bo'lgan munosabati va buning natijasida odamlarning amalga oshirilayotgan ishlarda faol ishtirok etishi, albatta, ularning istagi bilan o'lchanadi. Hozirgi kunda huquq-tartibot sohasidagi muammolarni hal qilish samaradorligini oshirish uchun so'nggi yillarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha ko'p ishlar amalga oshirildi. Lekin bugungi kun haqiqati shuni ko'rsatadiki, davlat huquqni muhofaza qilish tizimi fuqarolarning yordamisiz to'g'ri tartibni va jamoat xavfsizligini to'liq ta'minlay olmaydilar.

Mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlash masalalarini hal etishda fuqarolarning ishtiroki masalasi tarixini o'rganish aholini jamoat tartibini muhofaza qilishga jalb etishning tarixiy an'analari mavjudligidan dalolat beradi.

Bu sohada izlanish olib borgan professor Ziyodullayev M.Z. O'zbekistonda aholi turar joylarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimlarini 3ta davrga bo'lib o'rgangan.

Birinchi davr Chor Rossiyasi istilosigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, unda asosan yurtimizga arablar bosqinidan so'ng sud-huquq tizimiga shariat ahkomlari kirib kelgani, Amir Temur davridagi saltanat boshqaruvi va xonliklar hukmronligi davrida jamoat tartibining

saqlanishini hamda ushbu faoliyat bilan bevosita shug'ullanuvchi mansabdor shaxslar to'g'risida ma'lumot bergan.

Ikkinchi davr Chor Rossiyasi va Sovet Ittifoqi hukmronligi davri deb nomlanib, bu davr III faoliyati yo'lga qo'yilishi va hududlarda uchastka inspektori lavozimi joriy etilishi bilan xarakterlanadi. Professor bu davrda faoliyat olib borgan uchastka inspektorlarining vazifalarini keng yoritib bergan. Bundan tashqari jamoatchilik bilan hamkorlikda "jamoatchilik va militsiya aholi tayanch punktlari" faoliyati yo'lga qo'yilganligini ham keltirib o'tgan. 1974-yilda esa rus olimi E.A.Smirnov "jamoatchilik va militsiya aholi tayanch punktlari"ni yagona nomda – "Huquq tartibotni saqlash tayanch punktlari" deb nomlanishi ular faoliyatini to'liq qamrashini va mos kelishini asoslab berdi.[\[2\]](#) Keyinchalik huquq tartibotni saqlash tayanch punktlari faoliyati uchastka inspektorlari, ko'ngilli xalq drujinalari va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borilgan. Bu esa jamoat tartibini saqlashda fuqarolar ishtirokining jamiyat uchun ma'muriy ko'rinishi sifatida baholangan.

Shu bilan birga, Turkistonda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimining shakllanishi va rivojlanishi yuridik adabiyotlarda, xususan professor T.A.Jalilovning ilmiy ishlarida ham atroflicha yoritib berilganligini ko'rishimiz mumkin.[\[3\]](#)

Uchinchi davrda professor Ziyodullayev Mustaqillik davridagi jamoat tartibi saqlanishiga to'xtalib o'tgan. Bu davrda ham asosiy urg'u uchastka inspektorlariga qaratilgan bo'lib, mahallalardagi fuqarolar bilan bevosita ishlarni tashkil etish va nazoratini olib borish uchastka inspektori tomonidan amalga oshirilganligi mustaqil O'zbekiston misolida yoritib berilgan.[\[4\]](#)

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarni inobatga hozirgi zamonamizga mos ravishda biz jamoat tartibini saqlashdagi yurtimiz tarixini 4 bosqichga bo'lib o'rganish kerak deb hisoblaymiz. Bunda to'rtinchi davr Yangi O'zbekiston davri deb nomlanib, hozirdagi inson qadrini ulug'lash va xalq farovonligi yo'lida joylardagi jamoat tartibini saqlash va aholi xavfsizligini himoya qilishning amaldagi holati yoritilishi kerak deb hisoblaymiz.

Fuqarolar va mansabdor shaxslarning ish joyidagi xulq-atvorini nazorat qilish, yashash joyida, jamoat joylarida va boshqa joylarda qonunchilikdagi farqiga qaramay, fuqarolarning jamoat tartibini himoya qilishdagi ishtirokining ko'plab ijobiy misollarini o'z ichiga olgan va to'plangan mahalliy va xorijiy tajriba muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Shu o'rinda, yuridik fanlar nomzodi Mirzohofiziyon Mirzoali Mirzohofiz o'zining ilmiy ishida "fuqarolarning ishtirok etishi sohasidagi muammolarni ko'rib chiqish va ularni hal etish bo'yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish zarur" ekanligini ta'kidlab o'tgan.[\[5\]](#)

Avvalo bu mavzu doirasida xorijiy davlatlar tarixiga nazar tashlasak, Yevropa davlatlaridan Buyuk Britaniyada tartibni saqlash uchun mas'ul bo'lgan birinchi ko'ngillilar XI asrda paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. XIII asrda esa ularning huquqlari va majburiyatlari qonun bilan mustahkamlangan. Keyingi asrlarda Buyuk Britaniyada faoliyat yurituvchi ixtiyoriy tartibni saqlovchilar instituti rivojlanib, o'zgartirildi. Hozirgi vaqtda, mamlakatda ixtiyoriy politsiya (maxsus Konstabulary) mavjud bo'lib, uning xodimi 18 yoshdan oshgan har qanday fuqaro bo'lishi mumkin. U politsiya xodimlarining umumiy talablariga javob berishi va maxsus tayyorgarlik kursidan o'tishi kerak. Bu kabi ixtiyoriy politsiya bo'linmalari Buyuk Britaniyaning barcha politsiya bo'linmalarida ishlaydi. Ularning a'zolari asosan patrul vazifalarini bajaradilar, ammo ommaviy tadbirlar paytida jamoat

xavfsizligini ta'minlashda, politsiya reydlarida ham qatnashishlari mumkin. Shuningdek, Buyuk Britaniyada o'z ixtiyori bilan tartibni saqlashda ishtirok etuvchi ko'ngillilar professional politsiyachilar bilan bir xil maxsus vositalar bilan ta'minlangan. Ularning har biri tartibni saqlash tadbirlarida oyiga ma'lum bir soat ishlashi kerakligi belgilangan. Buning uchun ko'ngillilarga ma'lum turdagi imtiyozlar berilgan va ularning ijtimoiy himoyasi ham davlat tomonidan kafolatlangan. Misol uchun, 2002-yildagi "Politsiyani isloh qilish to'g'risida"gi Buyuk Britaniya qonuniga binoan, ko'ngillilar xizmat paytida jarohat olgan taqdirda sog'lig'ini tiklash bo'yicha pul to'lovlari bilan, agarda xizmat vazifasini ado etayotgan vaqtda olgan tan jarohati nogironlikka olib kelsa nogironlik nafaqasi bilan to'liq ta'minlanishi belgilangan. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada ixtiyoriy jamoat politsiyasini qo'llab-quvvatlash xizmati (jamoat xizmati xodimlari dasturi) mavjud bo'lib, u asosan politsiya va aholi o'rtasida doimiy aloqachi bo'lib ishlaydi. Ular yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish va aniqlash, shuningdek bu kabi ko'ngilsiz hodisalar haqida politsiyani xabardor qilish ishlari bilan shug'ullanadi. Buyuk Britaniyada istiqomat qiluvchi katta yoshdagi fuqarolarning 80% dan ortig'i ushbu ixtiyoriy dasturlarda kamida bir marta qatnashganligini ko'rishimiz mumkin.

Osiyo davlatlaridan Xitoy, Suriya, Eron va Saudiya Arabistoni davlatlarida fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi faol ishtiroki mavjudligini ko'rishimiz mumkin:

1) Xitoyda ko'ngillilar harakati ikki toifaga, ya'ni doimiy va vaqtinchalikka bo'linadi. Doimiy ko'ngillilar harakatini rivojlantirishda asosiy rolni kommunistik yoshlar Ittifoqidagi ko'ngillilar bilan ishlash bo'limi amalga oshiradi. Kommunistik yoshlar Ittifoqiga 18 yoshga to'lgan fuqarolar a'zo bo'lib, ko'ngilli asosda qo'shilishlari mumkin. Ba'zi hollarda esa, faqatgina ota-onasining ruxsati bilan 14 yoshdan ham a'zo bo'lishlari mumkinligi belgilangan. Vaqtinchalik ko'ngillilar esa, "ular xalq jangchilari" deb ham ataladi, ommaviy tadbirlar arafasida va paytida qatnashuvchi fuqarolardan tashkil topadi. Shuningdek, ular hududlarda patrullik qilish tadbirlarida jamoat tartibini saqlash va atrof muhitni muhofaza qilish kabi vazifalarni bajarishadi. Xususan, ular jamoat tartibini buzayotgan, ko'chalarni ifloslantirayotgan, yo'l harakati qoidalariga rioya qilmayotgan va mashinalarini taqiqlangan yoki boshqalarga xalaqit beruvchi fuqarolarga nisbatan tushuntirish ishlari olib boradilar. Bundan tashqari katta tadbirlarda keng ko'lamdagi ko'chalarni nazorat qilishda ham vaqtinchalik ko'ngilli fuqarolardan foydalaniladi. Misol uchun, 2012-yil noyabr oyida Pekinda 18-Butun xitoy qurultoyi bo'lib o'tganida, shahar ko'chalarida delegatlar xavfsizligi va tartibini ta'minlash uchun 1,4 million ko'ngilli jalb qilindi. Keyinchalik Xitoyda 2014-yil 12-iyundan boshlab Pekinda terrorizmga qarshi yirik kampaniya doirasida 50 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan 850 ming ko'ngilli ishlay boshladi. Ularning asosiy vazifalari etib politsiyaga jinoyatchilarni topishda yordam berish, metro stansiyalarida yo'lovchilar va ularning narsalarini tekshirish kabilar belgilandi.

2) Yaqin sharq mamlakatlaridan Suriyada ham fuqarolar tomonidan jamoat tartibini saqlanishining yaqin tarixi kurdlar yashaydigan hududlarda "xalq mudofaasi qo'mitalari" vujudga kelishiga borib taqadi. Ular 2011-yilda boshlangan mamlakatda qurolli to'qnashuv munosabati bilan yaratilgan bo'lib, o'sha vaqtda ular saflariga 15 mingga yaqin fuqarolar faoliyat yuritgan. Ularning asosiy maqsadi kurd hududlarini egallab olishga intilayotgan islomiy guruhlarining hujumlarini qaytarish va hududi va oilasini himoya qilish bo'lgan.

3) Yana bir yaqin sharq mamlakatlaridan biri bo'lmish Eronda 1979-yilda

harbiylashtirilgan “Basij” tashkil etildi. Basij soʻzi fors tilidan tarjimai “kam taʼminlangan Eron xalqini safarbar qilish”ni degan maʼnoni anglatadi. Dastlab, Basij otryadlari faqat xalq militsiyasi sifatida faoliyat yuritgan. 1980-1988-yillardagi Eron-Iroq urushi paytida esa “Basij” saflaridan frontga 12 yoshdan 80 yoshgacha boʻlgan 450 mingga yaqin qurolsiz koʻngillilarni yuborilganligini koʻrishimiz mumkin. Tinchlik davrida “Basij” ning asosiy vazifasi butun mamlakat aholisining harbiy tayyorgarligini tashkil etish hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Eronda faoliyat yuritayotgan Basij otryadlari ichki xavfsizlikni taʼminlash, jamoat tartibini saqlash, dissidentlarning chiqishlarini bostirish, ijtimoiy yordam koʻrsatish, tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishda yordam berish kabi tadbirlarda ishtirok etmoqda. Shuningdek, ular mahalliy sudlarda sud ijrochisi boʻlib ham xizmat qilishadi. Iroq bilan chegarada faoliyat olib boruvchi koʻngillilar esa chegara qoʻriqchisi sifatida harakat qilishadi. “Basij” markazlashtirilmagan tarmoq tuzilishiga ega boʻlib, uning boʻlinmalari barcha shaharlarda, qishloqlarda va kichik shaharlarda tashkil etilgan. Din ulamolar esa ularga rahbarlik qiladi. Shuningdek, Basij rahbariyati Eron qurolli kuchlarining elita boʻlinmasi boʻlgan Islom inqilobi qoʻriqchilari korpusini (IRGC) tashkil qiladi. Bundan tashqari, u shakllanishning mafkuraviy, siyosiy va harbiy tayyorgarligi bilan shugʻullanadi. 2008-yildan beri Basij IRGC quruqlikdagi kuchlarga kiritilgan. 2014-yil maʼlumotlariga koʻra, uning soni taxminan 40 ming kishini tashkil qiladi. Hozirga kelib Basij saflarida 12 milliondan ortiq kishi harbiy tayyorgarlikdan oʻtdi. uning aʼzoligiga 15 yoshdan boshlab qabul qilinadi.

4) Isroil mamlakatida esa “Mishmar ezrahi” ixtiyoriy politsiya yordamchilari tashkiloti mavjud (IVR bilan. – “Fuqarolik qoʻriqchisi”). U 1974-yilda Falastin jangarilari tomonidan amalga oshirilgan bir qator teraktlardan soʻng tashkil etilgan. Barcha koʻngillilar politsiyani tayyorlash dasturi boʻyicha asosiy mashgʻulotlardan oʻtkazilgan, ularning har biri jamoat tartibini saqlashda oyiga kamida sakkiz soat ishlashi kerak deb belgilangan. Xususan, ularga huquqbuzarlarni hibsga olish va hibsdan saqlash vakolatlari berilgan. Politsiya yordamchilari litsenziya talab qiladigan karabinlar va shaxsiy toʻpponchalar bilan qurollangan. Koʻngillilar xizmatidan asosan patrul xizmatida, transport politsiyasida, tergov organlarida va balogʻatga yetmagan bolalar tizimida, chegara politsiyasida va ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashish maqsadida foydalanilgan.

5) Saudiya Arabistonida 1940-yildan beri fazilatni targʻib qilish va yomonlikdan saqlanish boʻyicha qoʻmita faoliyat yuritgan, uning maqsadi shariat qonunlarini amalga oshirishga koʻmaklash hisoblangan. Qoʻmita tarkibiga 3,5 mingga yaqin davlat diniy politsiyasi vakillari (mutavviin) va koʻplab koʻngillilar kirgan. Ular doimiy ravishda koʻchalarda, savdo markazlarida va boshqa jamoat joylarida patrullik qilishgan. Ularning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat boʻlgan:

- aholining (ayniqsa ayollarning) tashqi qiyofasi va kiyim-kechaklarini kuzatish;
- qarindosh boʻlmagan erkaklar va ayollarning qatʼiy boʻlinishini nazorat qilish;
- shariat axloqiga rioya qilish;
- turli tadbirlarda aholining xatti-harakatlarini kuzatish;
- choʻchqa goʻshti, alkogol va giyohvand moddalarni isteʼmol qilishni taqiqlash va boshqalar.

Koʻpincha qoʻmita vakillari jinoyat sodir boʻlgan joyga fuqarolarning oʻzlari tomonidan chaqirilgan.

AQShda esa jamoat tartibining holatini nazorat qilish “Mahalla soati” ixtiyoriy

tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan. Ularning asosiy vazifasi jinoiy fe'l-atvordagi har qanday ma'lumotni politsiya e'tiboriga etkazish va hududni patrul qilishdan iborat bo'lgan. Birinchi ixtiyoriy patrul 1964-yilda Nyu-Yorkda, yosh ayol Kitti Genovese o'ldirilgan Kvins hududida paydo bo'lgan. Qotillik jamoatchilikning katta noroziligiga sabab bo'lgan va mahalla aholisi otryadlarga qo'shilib, ko'chalarni qo'riqlay boshlaganlar. Keyinchalik bu tashabbus butun mamlakatga tarqalgan. 1972-yilda "qo'shnilar" harakati milliy sheriflar uyushmasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Shu vaqtdan boshlab politsiya ko'ngillilar bilan faol hamkorlik qiladi, ularni reydlarida va profilaktika tadbirlarida jalb qiladi. Hozirgi kunda "Mahalla patrullari" a'zolari yo'l harakati xavfsizligini oshirish, oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurashishda qatnashadilar.

Tarixiy nuqtai nazardan jamoat tartibini saqlashda xorijiy tajribani o'rganish davomida Yevropa davlatlaridan Buyuk Britaniya, Osiyo davlatlaridan Xitoy, Suriya, Eron va Saudiya Arabistoni va AQSh mamlakatlarida politsiya tomonidan o'tkazilayotgan turli jamoat hamkorlik dasturlari tahlil qilindi va bu tahlil natijalari, aholini jalb qilish shakllari va usullarini tanlashga yondashuvlar xilma-xilligiga qaramay, bir qator umumiy tendensiyalar mavjudligini ko'rsatdi. Aytish mumkinki, ularning ko'pgina hamkorlik dasturlaridan asosiy maqsadi - aholining militsiya faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish va ulardan sodir etilgan yoki sodir bo'layotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlar to'g'risida bevosita ishtirok etmasdan ma'lumot olishlarini ta'minlashdir.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz kerakki, jamoat tartibini saqlashda o'zimizning milliy tariximizni o'rganishimiz va ularni fuqarolarimiz va endigina hayotga kirib kelayotgan yosh, navqiron va barkamol yoshlarimizga o'rnak sifatida o'rgatishimiz kelgusida yurtimiz uchun vatanparvar va yurtga sadoqatli avlodlarni tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi. Bu boradagi xorijiy tajribalar esa biz uchun maktab vazifasini bajaradi. Albatta, bu fuqarolarimizning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroklarini yanada faol tarzda davom ettirishimizga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyëev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon haetning, do'stona hamkorlik esa taraqqiётning kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi. – 2018. – 8 dek.
2. Petrov A.I., Polishux A.D. Опорные пункты охраны правопорядка. – Kiev. 1976.- S. 10.
3. Djalilov T. stranisy istorii militsii Xorazme i Buxary. – T., 1970. – S. 10.; Djalilov T. Верные отчизнеу Iz istorii raboche-krestyanskoy militsii v Turkestane (1917 – 1924g.g.). – T., 1968. – S.35.; Yerapxin M.I. Razvitie organov militsii v sovetskom gosudarstve. – M. , 1967. – S. 13.
4. Ziyodullaev Muzaffar Ziyodullaevich "Militsiya tayanch punktlarining jamoat tartibi va xavfsizligini taminlash faoliyatini boshqarishni takomillashtirish"
5. Mirzohofiziyon Mirzoali Mirzohofiz "Mexanizm administrativno-pravovogo regulirovaniya uchastiya grajdan Respubliki Tajikistan v obespechenii obshestvenogo poriyadka"